

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 716,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 289,8 mln. AQSh dollariga yoki 68,0 % ga oshdi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

	2019- yil	2020- yil	O' sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	426,3	716,1	168,0	x
<b>Eksport</b> 	103,0	101,4	98,5	100,0
 tovarlar	102,5	101,1	98,7	99,7
 xizmatlar	0,5	0,3	69,6	0,3
<b>Import</b> 	323,4	614,6	190,1	100,0
 tovarlar	323,1	614,6	190,2	100,0
 xizmatlar	0,3	0,0	0,0	0,0
 Saldo	-220,4	-513,2	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 101,4 mln. AQSh dollariga (1,5 % ga kamaydi) va import hajmi 614,6 mln. AQSh dollariga (90,1 % ga oshdi) yetdi. Hisobot davrida – 513,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



**JIZZAX VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**  
(2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Chexiya Respublikasi	346,1	0,1	346,0	48,3
Xitoy Xalq Respublikasi	134,3	10,0	124,3	18,8
Turkiya	54,1	27,2	26,9	7,6
Rossiya Federatsiyasi	43,5	27,8	15,7	6,1
Litva	31,3	0,0	31,3	4,4
Koreya Respublikasi	17,7	0,0	17,7	2,5
Qozog'iston	13,8	10,1	3,7	1,9
Latviya	11,1	0,1	11,1	1,6
Tojikiston	9,0	9,0	0,0	1,3
Italiya	6,7	3,3	3,5	0,9

Viloyatimiz jahonning 50 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Chexiya Respublikasida (48,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (18,8 %), Turkiyada (7,6 %), Rossiya Federatsiyasida (6,1 %), Litvada (4,4 %), Koreya Respublikasida (2,5 %), Qozog'istonda (1,9 %), Latviyada (1,6 %) va Tojikistonda (1,3 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Chexiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (54,1 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (43,5 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (13,8 mln. AQSh dollari), Tojikiston (9,0 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi

(3,6 mln. AQSh dollari) va Pokiston (2,2 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Chexiya Respublikasi</b>	<b>0,1</b>	<b>3,7</b>	<b>346,1</b>
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	0,1	3,7	346,0
Saldo	-0,1	-3,7	-345,9
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>91,5</b>	<b>113,7</b>	<b>134,3</b>
Eksport	9,2	7,3	10,0
Import	82,3	106,4	124,3
Saldo	-73,1	-99,1	-114,3
<b>Turkiya</b>	<b>41,2</b>	<b>63,3</b>	<b>54,1</b>
Eksport	11,0	23,2	27,2
Import	30,3	40,2	26,9
Saldo	-19,3	-17,0	0,4
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>58,0</b>	<b>48,8</b>	<b>43,5</b>
Eksport	24,3	25,8	27,8
Import	33,8	23,0	15,7
Saldo	-9,5	2,7	12,1
<b>Litva</b>	<b>5,0</b>	<b>30,2</b>	<b>31,3</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	5,0	30,2	31,3
Saldo	-4,9	-30,2	-31,3
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>5,8</b>	<b>25,3</b>	<b>17,7</b>
Eksport	0,0	0,0	0,0



Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Import	5,8	25,3	17,7
Saldo	-5,8	-25,3	-17,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>52,4</b>	<b>29,5</b>	<b>13,8</b>
Ekspost	18,0	17,4	10,1
Import	34,4	12,0	3,7
Saldo	-16,4	5,4	6,4
<b>Latviya</b>	<b>10,7</b>	<b>27,8</b>	<b>11,1</b>
Ekspost	0,2	0,1	0,1
Import	10,5	27,6	11,1
Saldo	-10,3	-27,5	-11,0
<b>Tojikiston</b>	<b>1,7</b>	<b>8,7</b>	<b>9,0</b>
Ekspost	1,7	8,4	9,0
Import	0,0	0,3	0,0
Saldo	1,7	8,1	9,0
<b>Italiya</b>	<b>2,2</b>	<b>2,3</b>	<b>6,7</b>
Ekspost	0,4	2,1	3,3
Import	1,9	0,1	3,5
Saldo	-1,5	2,0	-0,2
<b>Polsha</b>	<b>0,7</b>	<b>17,5</b>	<b>6,2</b>
Ekspost	0,3	0,5	1,1
Import	0,5	17,0	5,1
Saldo	-0,2	-16,5	-3,9
<b>Avstriya</b>	<b>0,7</b>	<b>1,2</b>	<b>5,1</b>
Ekspost	0,0	0,0	0,0
Import	0,7	1,2	5,0
Saldo	-0,7	-1,2	-5,0
<b>Gongkong</b>	<b>0,8</b>	<b>1,2</b>	<b>4,6</b>
Ekspost	0,0	0,0	0,0




Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Import	0,8	1,2	4,6
Saldo	-0,8	-1,2	-4,6
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>2,1</b>	<b>5,8</b>	<b>4,1</b>
Eksport	0,6	0,6	0,9
Import	1,5	5,3	3,2
Saldo	-0,9	-4,7	-2,3
<b>Germanya</b>	<b>15,9</b>	<b>3,3</b>	<b>4,1</b>
Eksport	0,8	0,5	0,1
Import	15,0	2,8	4,0
Saldo	-14,2	-2,3	-3,8
<b>Yaponiya</b>	<b>0,3</b>	<b>2,0</b>	<b>3,6</b>
Eksport	0,1	0,0	0,0
Import	0,2	1,9	3,6
Saldo	0,0	-1,9	-3,6
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>3,0</b>	<b>5,2</b>	<b>3,6</b>
Eksport	3,0	5,0	3,1
Import	0,0	0,2	0,5
Saldo	2,9	4,8	2,6
<b>Eron</b>	<b>10,3</b>	<b>5,8</b>	<b>2,7</b>
Eksport	1,1	1,8	0,8
Import	9,2	4,0	2,0
Saldo	-8,2	-2,2	-1,2
<b>Pokiston</b>	<b>4,6</b>	<b>0,8</b>	<b>2,2</b>
Eksport	0,5	0,6	2,2
Import	4,1	0,2	0,0
Saldo	-3,6	0,3	2,2
<b>Turkmaniston</b>	<b>0,5</b>	<b>1,1</b>	<b>1,5</b>
Eksport	0,2	0,3	0,7

Davlat nomi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Import	0,3	0,8	0,8
Saldo	-0,1	-0,6	-0,1

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 10,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2018- yilga nisbatan ulushi 37,8 % ga kamaygan.



**JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida 2018- yilning shu davriga nisbatan 3 martaga ko'paydi va jami TSA dagi ulushi 89,3 % ni tashkil etdi.

## JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 161 tani tashkil etib, ular tomonidan 101,4 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (60,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,3 %), turli xil tayyor buyumlar (12,8 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (2,3 %), mashinalar va asbob-uskunalar (1,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 101,4 million AQSh dollarini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga kamaydi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-oktabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami eksport</b>	<b>101,4</b>	<b>98,5</b>	<b>100,0</b>	<b>52,6</b>	<b>84,0</b>	<b>100,0</b>	<b>48,8</b>	<b>121,1</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,6	49,4	20,5	11,1	48,2	21,1	9,6	51,0	19,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	10,8	0,0	0,0	10,8	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	29,3	1,9	0,3	11,6	0,5	1,6	39,6	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	26,8	0,7	0,5	19,0	1,0	0,2	0,0	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,4	302,6	2,3	1,3	183,1	2,5	1,0	18,6 m.	2,1
Sanoat tovarlari	61,2	170,7	60,3	25,3	125,4	48,1	35,9	2,3 m.	73,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,3	40,6	1,2	1,1	35,7	2,0	0,2	175,5	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	13,0	110,5	12,8	12,8	123,0	24,4	0,2	14,5	0,4
Xizmatlar	0,3	69,6	0,3	0,2	113,0	0,4	0,1	41,3	0,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, eksport hajmi bo‘yicha keyingi o‘rinlar oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda turli xil tayyor buyumlarga to‘g‘ri kelmoqda.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2018- yilning yanvar-oktabriga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg‘idan tashqari), mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar hamda mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallardan tashqari barcha tovar guruhlari o‘shish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, % da)

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36,7	40,4	20,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	3,3	6,4	1,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	2,7	0,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	0,8	0,8	2,3
Sanoat tovarlari	46,1	34,8	60,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,8	3,0	1,2
Turli xil tayyor buyumlar	10,9	11,4	12,8
Xizmatlar	0,4	0,5	0,3



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
EKSPORTI TARKIBI  
(2020- yil yanvar-oktabr)**


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	18,4	60,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,1	73,2
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,2	45,6
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,9	157,2
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,0	5,9
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,5	40,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,2	34,3
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	0,1	124,3
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	1,8	75,4
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,7	26,8
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,8	110,1
O'g'itlar	0,4	21,5 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,0	57,7

Bo'laydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,1	120,3
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	54,2	1,8
Rangli metallar	0,0	0,0
Cho'yan va po'lat	0,4	3,2
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	1,2
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1,0	97,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Avtomobillar	0,0	0,0
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1,1	53,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,1	27,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunolari	0,1	45,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	11,8	100,6
Poyabzal	0,8	0,0
Har xil tayyor buyumlar	0,4	563,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	0,1	0,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	0,0	0,0

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yilning yanvar-oktabridagi 63,9 % dan 2020- yilning yanvar-oktabrida 51,9 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 27,4 %), Turkiya (26,9 %), Qozog'iston (10,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (9,9 %) va Tojikiston (8,9 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 82,9 % ni tashkil etmoqda.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2020- yil yanvar-oktabr,% da)



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Turkiya egalladi. Turkiyadan ozgina ortda qolgan Qozog'iston uchinchi pog'onani egallab turibdi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019- yining mos davriga nisbatan 36 davlatdan 41 davlatga oshdi.



**JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI  
(yanvar-oktabr)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Rossiya Federatsiyasi	25,8	27,8	106,2	107,7	1	1
Turkiya	23,2	27,2	2,1m.	117,6	2	2
Qozog'iston	17,4	10,1	96,9	58,0	3	3
Xitoy	7,3	10,0	79,7	136,9	4	4
Italiya	8,4	9,0	5,0 m.	106,6	7	5
Qirg'iz Respublikasi	2,1	3,3	5,7 m.	153,9	5	6
Pokiston	5,0	3,1	167,8	62,5	16	7
Afg'oniston	0,6	2,2	116,7	4,0 m.	9	8
Polsha	1,3	1,2	66,9	92,4	13	9
Belarus	0,5	1,1	176,7	2,3 m.	10	10
Birlashgan Arab Amirliklari	0,6	0,9	90,4	160,1	11	11
Ukraina	0,0	0,8	0,0	0,0	6	12
Eron	4,3	0,8	6,1 m.	18,3	12	13
Turkmaniston	1,8	0,8	169,2	41,8	17	14
Iroq	0,3	0,7	168,1	2,7 m.	8	15
Gruziya	0,6	0,3	135,6	57,7	14	16

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Suriya	0,1	0,3	2,1 m.	3,4 m.	19	17
Singapur	0,2	0,3	0,0	154,3	22	18
Azərbayjon	0,0	0,3	0,0	0,0	15	19
Hindiston	0,9	0,2	6,5 m.	22,5	18	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda oziq mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar kiradi.



**VILOYATNING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari)**


XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>25,8</b>	<b>27,8</b>	<b>23,2</b>	<b>27,2</b>	<b>17,4</b>	<b>10,1</b>	<b>7,3</b>	<b>10,0</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,1	2,7	12,9	4,3	11,5	5,9	1,4	2,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,2	0,0	0,1	1,0	0,1	0,0	2,5	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,1	0,2	0,0	0,9

XSST tarkibi	Xitoy		Rossiya		Turkiya		Qozog'iston	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Sanoat tovarlari	13,2	16,7	10,2	21,9	4,2	4,0	3,4	6,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1,0	0,5	0,0	0,0	1,5	0,0	0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	8,1	7,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,2	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 0,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,3 % ini tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 30,4 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (55,9 %), transport (32,3 %) va safarlar (turizm) (11,8 %) xizmatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI**  
(2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)






## JIZZAX VILOYATIINING IMPORTI (2020- yil yanvar-oktabr)

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 614,6 mln. AQSh dollarini va 2019- yilning mos davriga nisbatan 190,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (85,3 %), sanoat tovarlari (5,6 %) hamda turli xil tayyor buyumlar (3,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabrida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 291,3 mln. AQSh dollariga oshdi va 614,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.


**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2020- yil yanvar-oktabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Jami import</b>	<b>614,6</b>	<b>190,1</b>	<b>100,0</b>	<b>24,2</b>	<b>52,3</b>	<b>100,0</b>	<b>590,5</b>	<b>213,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,6	60,6	1,6	7,5	69,8	30,1	2,4	43,1	0,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	20,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,7	69,7	1,2	4,1	47,2	17,2	3,5	158,2	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,9	121,9	0,3	1,6	120,7	6,6	0,3	129,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16,5	69,4	2,7	2,9	71,1	12,1	13,6	69,0	2,3
Sanoat tovarlari	34,3	115,2	5,6	3,5	51,7	14,7	30,8	134,2	5,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	524,5	241,4	85,3	3,1	25,4	13,0	521,4	254,5	88,3
Turli xil tayyor buyumlar	20,1	89,9	3,3	1,5	102,3	6,3	18,5	89,1	3,1
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari importining ulushi 49,4 % dan 85,3 % gacha o'sdi, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari 7,2 % dan 1,2 % ga, sanoat tovarlari importining ulushi esa 11,3 % dan 5,6 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI**  
(2020- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)

XSST tarkibi	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami import</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,1	4,9	1,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	7,2	3,4	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	0,5	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,9	0,4	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9,4	7,4	2,7
Sanoat tovarlari	11,3	9,2	5,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	49,4	67,2	85,3
Turli xil tayyor buyumlar	5,3	6,9	3,3
Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	0,2	0,1	0,0



**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI  
MAHSULOTLAR TARKIBI  
(2020- yil yanvar-oktabr)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2,1	65,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	4,8	78,6
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,1	96,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2,4	49,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	55,9
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	0,2	25,8
Metall rudalari va metall parchalari to'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	0,0	162,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	3,3	2,8 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,0	0,0
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	4,1	186,0
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,9	142,2
Ko'mir, koks va briketlar	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,0	0,0
Hayvonlar moylari va yog'lari	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2,9	49,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,5	102,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	7,7	105,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,2	128,3
Organik kimyo moddalari	3,4	105
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	9,1	109,9
Metalldan tayyorlangan buyumlar	6,0	115,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	5,7	140,5

Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari	5,8	215,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7,8	163,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	97,4	85,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	388,6	5,0 m.
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	9,1	55,5
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	14,9	135,6
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	11,6	2,8 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	2,8	161,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlar	6,0	2,1 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	12,4	75,8
Har xil tayyor buyumlar	1,4	46,5
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	157,1
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,1	3,5 m.


Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining kamayishiga shakar va shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal (21,4 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Mashinalar va transport asbob-uskunalari importi oshishiga esa, elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari 2,8 marta hamda sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari 5,0 martaga importining ko'payishi bevosita ta'sir etgan.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2019- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori oltilikda o'zgarish kuzatilmadi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha Jizzax viloyati tomonidan 50 ta davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR**  
(yanvar-oktabr)

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Chexiya Respublikasi	3,7	346,0	37,5 m.	94,4 m.	1	10
Xitoy Xalq Respublikasi	106,4	124,3	129,3	116,8	2	1



Davlat nomi	mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Litva	30,2	31,3	6,1 m.	103,6	3	5
Turkiya	40,2	26,9	132,8	66,8	4	2
Koreya Respublikasi	25,3	17,7	4,3 m.	69,7	5	3
Rossiya Federatsiyasi	23,0	15,7	68,2	68,1	6	4
Latviya	27,6	11,1	2,6 m.	40,1	7	6
Polsha	17,0	5,1	37,6 m.	29,9	8	29
Avstriya	1,2	5,0	175,4	4,2 m.	9	9
Gongkong	1,2	4,6	158,8	3,6 m.	10	38
Germaniya	2,8	4,0	18,4	142,9	11	8
Qozog'iston	12,0	3,7	35,0	30,6	12	12
Yaponiya	1,9	3,6	11,2 m.	186,5	13	14
Italiya	0,1	3,5	7,5	24,8 m.	14	28
Belarus respublikasi	5,3	3,2	3,5 m.	60,7	15	16
Eron	4,0	2,0	43,0	49,5	16	20
Gruziya	0,6	1,1	7,1 m.	177,2	17	22
Hindiston	1,9	1,0	145,2	51,1	18	24
Bangladesh	0,7	0,8	83,6	115,4	19	31
Turkmaniston	0,8	0,8	2,8 m.	91,0	20	25

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Chexiya Respublikasi umumiy import hajmida 56,3 % ulushi bilan Xitoy Xalq Respublikasini (20,2 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

Yetti yirik hamkor davlatlar (Chexiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Turkiya, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Latviya) jami importning 93,2 % ulushini tashkil qiladi, bu 572,9 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

**VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARNING ULUSHI  
(2020- yil yanvar-oktabr)**

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Chexiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Turkiya, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (72) 221 51 26**